# DISKURSDA HID VERBALIZATSIYASI VA LINGVOKOGNITIV REPREZENTATSIYA MASALALARI

**Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o‘g‘li**
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya***
*Ushbu maqolada diskurs atamasining tilshunoslikda qanday ma’noda qo‘llanilishi, uning kelib chiqish tarixi, kimlar tomonidan atroflicha o‘rganilganligi haqida so‘z yuritiladi. Diskursda hid verbalizatsiyasining o‘rni va ifodalanishi yoritib berilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *diskurs, hid, verbalizatsiya, konsept, diskursiv nutq.*

## KIRISH

Diskurs kategoriyasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasida konseptual jihatdan eng ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan va murakkab tabiati bilan ajralib turuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib mazkur termin faqatgina lingvistik tadqiqotlar doirasi bilan cheklanib qolmasdan, balki gumanitar fanlar majmuining falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixolingvistika hamda adabiyotshunoslik kabi ko‘plab tarmoqlarida ham integratsion asosda faol qo‘llanilmoqda. Ushbu tushunchaning etimologik ildizlari chuqur tarixiy evolyutsiyaga ega. Xususan, onlayn etimologik lug‘at ma’lumotlariga ko‘ra,(1 ) mazkur leksik birlik dastlab lotin tilida harakatni, aniqrog‘i “yugurish” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘rta asrlar lotin tiliga kelib “o‘zaro so‘zlashuv” yoki “bahslashuv” ma’nolarini o‘zlashtirgan.

Etimologik jihatdan u *discurrere* (har tomonga, oldinga va orqaga yugurish) fe’liga borib taqaladi. Mazkur semantika vaqt o‘tishi bilan ma’lum bir muammoni atroflicha va batafsil muhokama qilish mazmuni bilan boyitildi. Binobarin, bugungi kunda “diskurs” tushunchasi ostida muayyan tematik doirada fikrlarning dinamik tarzda verbalizatsiya qilinishi hamda muloqot ishtirokchilarining o‘zaro lisoniy ta’sir jarayoni tushuniladi.

“Diskurs” tushunchasi ham ilmiy tadqiqotlar, ham publitsistika uchun an’anaviy kategoriyaga aylanib ulgurdi. Diskurs tadqiqi borasida M.L.Makarovning: “...diskurs kabi kategoriyaga ta’rif berishning o‘ziyoq ma’lum bir mafkuraviy orientatsiyani, til va lisoniy muloqotni o‘rganishga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarni nazarda tutadi”, – degan ta’kidi adolatlidir. (2,200) Keng ma’noda, diskurs insonlarning ijtimoiy-kommunikativ yo‘nalishdagi har qanday o‘zaro ta’siri sifatida qaralsa, tor ma’noda, u matn grammatikasi va mulohazalarning bog‘liqligini o‘z ichiga oladi. Keng yondashuv ham, tor yondashuv ham diskursiv tahlilning o‘ziga xos konseptual-metodologik asoslariga egadir. Diskurs nazariyasining aniq paydo bo‘lish davrini belgilash mushkul bo‘lsa-da, an’anaga ko‘ra, “diskurs” termini fanga dastlab Z.Harris tomonidan “Diskurs tahlili” nomli asarda kiritilgan deb hisoblanadi. Tadqiqotchi yaxlit bog‘langan matnni o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi, chunki “til alohida uzuq-yuluq so‘zlar yoki gaplar ko‘rinishida emas, balki yaxlit bog‘langan matn shaklida namoyon bo‘ladi...”. Diskursiv tahlil ham,

uning asosiy tushunchasi bo‘lgan diskurs ham fanda ancha avval yuzaga kelgan. Diskurs nazariyasi ko‘p jihatdan Amerika etnolingvistika maktabining tabiiy til va nutqni o‘rganishga oid tadqiqotlarida, shuningdek, Praga lingvistik to‘garagining gapning aktual bo‘linishi hamda matnni o‘rganishda kommunikativ yondashuv zarurligi haqidagi g‘oyalarida oldindan bashorat qilingan edi. Dastlabki bosqichda mazkur birlik XX asrning birinchi yarmida rus psixolingvistikasi maktabi vakillari tomonidan mustaqil termin sifatida emas, balki asosan atributiv xarakterdagi so‘z birikmalari tarkibida qo‘llanilgan. Jumladan, L.P.Yakubinskiy muloqot muhiti va kontekstual sharoitga qarab til imkoniyatlaridan foydalanishning differentsial xususiyatlariga e’tibor qaratgan holda, “diskursiv nutq” tushunchasini muomalaga kiritgan edi. (3,206) L.S.Vigotskiy esa o‘z ishlarida “diskursiv fikrlash” hodisasini hissiy-emotsional tafakkur shakllaridan farqlashga harakat qiladi, biroq uning lingvistik mohiyatini chuqur interpretatsiya qilmaydi.(4,75) Shuningdek, A.R.Luriya diskursiv tafakkurni samarali muloqotni ta’minlovchi va intellektual faoliyatni harakatga keltiruvchi omil sifatida baholagan bo‘lsa,(5,263) A.N.Leontev “diskursiv bilish”, “diskursiv jarayonlar” singari kategoriyalarni tadqiq etib, diskursiv fikrlashga og‘zaki-mantiqiy operatsiyalar tizimi sifatida ta’rif beradi. (6,327) Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qayd etilgan dastlabki tadqiqotlarning hech birida “diskursivlik” tushunchasining lingvistik tabiati uning nutqiy ifodalanishining o‘ziga xos shakli sifatida to‘liq va mukammal tarzda ochib berilmagan. Bizningcha, mazkur psixolingvistik qarashlar zaminida yotgan diskursiv tafakkur va mantiqiy operatsiyalar tizimi bevosita insonning sensor-perseptiv faoliyati bilan zanjirsimon tarzda bog‘liqdir. Xususan, olfaktor sensorikaga oid axborotning inson ongida qayta ishlanishi va tilda voqelanishi L.S.Vigotskiy ta’kidlagan hissiy-emotsional tafakkur darajasidan boshlanib, A.N.Leontev qayd etgan og‘zaki-mantiqiy muloqot bosqichida to‘liq shakllanadi. Xususan, hid bilish sezgisiga doir lisoniy birliklar til egalarining milliy-madaniy kodi va diskursiv muhitining mahsulidir. A.R.Luriya diskursivlikni intellektual faoliyat asosi sifatida baholagan bo‘lsa, biz o‘zbek tili olam manzarasida olfaktor birliklarning voqelanishini individual va ijtimoiy muloqotni harakatga keltiruvchi diskursiv pragmatik omil deb hisoblaymiz. Zero, diskursiv makonda har qanday hid konsepti muloqot ishtirokchilari o‘rtasida sinxron tarzda ham verbal, ham paralingvistik sathda lisoniy va kognitiv reprezentatsiyani talab etadi. Shunga ko‘ra, diskursiv fikrlash konsepsiyasini faqatgina umumiy psixolingvistik tushuncha sifatida cheklamay, uni o‘zbek tili materiallari asosida, xususan, perseptiv-olfaktor leksikaning matnda voqelanish qonuniyatlari misolida chuqur va lingvistik jihatdan tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Онлине Этймологй Дистионарй // ҳттпс://www.этймонлине.ком/

2. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л. Макаров. – Тверь : Изд-во Твер. гос. ун- та, 1998. – 200 с.

3. Якубинский Л.П. Язык и его функционирование: избранные работы. – М.: Наука, 1986. – 206 с.

4. Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 75.

5. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во Московского университета, 1998. – С. 263.

6. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии. – М.: Смысл; Академия, 2010. – С. 327.